



№ 9 (948) 18-may, payshanba 2023-yil	TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА	Gazeta 1974-yil martdan chiqqan boshlagan
--	---	---

## TINCHLIK- TARAQQIYOT GAROVIDIR

**B. T. DAMINOV,**  
**ToshPTI rektori,**  
**Xalq deputatlari Toshkent**  
**shahar kengashi deputati**

Inson uchun tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik muhim ahamiyat ega. Tinchligini yo'qotgan xonadon ham, mamlakat ham aslo xotirjam bo'la olmaydi. Tinchlik-xotirjamlik – taraqqiyot garovidir.

Biz azal-azaldan tinchliksevar xalqmiz. Aynan shu g'oya targ'ibiga bag'ishlangan buyuk milliy ma'naviy merosimiz bor. Ularning barida tinchlikning qadriga etish targ'ib etiladi, urush esa batamom qoralanadi. 9-mayni Xotira va Qadrlash kuni tarzida umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi.

II jahon urushida O'zbekistonimizdan 1 million 433 ming 230 nafar odam ishtirok etdi. 604 ming 52 nafar hamyurtimiz urush maydonlaridan nogiron bo'lib qaytdi, 450 mingdan ortiq vatandoshimiz esa qonli janglarda halok bo'ldi. Hamon oramizda qanchadan-qancha urush qatnashchilari, front ortida mehnat-mashaqqat chekkanlar bor. O'tganlarni xotirlash, safimizda yurganlarning esa qadriga etish kerak.

Mustaqil O'zbekiston xalqi va davlati avval-boshdan tinchlik-totuvlik tarafdori sifatida maydonga chiqdi. Ana shu asoslarga ko'ra, mustaqillik yillarida ham bizda 9 may umumxalq bayrami sifatida, 1999-yildan boshlab esa Xotira va Qadrlash kuni sifatida nishonlaymiz. Xotira va Qadrlash kuni endi o'zgacha, aniqrog'i, milliy xususiyat kasb etdi. Bu bayramning mazmun-mohiyati butkul o'zgardi – u

xalq xotirasi va insonni qadrlash kuniga aylandi.

Xalq xotirasi deganda kishi ko'z o'ngidan Vatan ibtidosidan buguniga qadar shu yurt, shu xalq deb kurashgan, kuch-qudrati, aql-zakovatini ayamagan, shu yo'lda jon fido qilgan nene buyuk zotlar bir-bir o'tadi. Spita-men, Shiroqdan Turkon Xotun, Mahmud Torobiygacha, Sohbiqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bekdan Zahiriddin Muhammad Boburgacha, Jaloliddin Manguberdidan, Najmiddin Kubrogacha yodga tushaveradi.

Inson xotirasi, uning muqaddas Vatandagi aziz o'rni bugungi kunda har doimgidanda e'zozlanmoqda. Inson qadri ulug'lanayotgan yurtda qadr topgan, nomi qilgan yaxshi va ezgu amallariga hamohang eslanayotgan, yosh avlod uchun Vatan ne ekanligini o'z mehnatlari bilan ko'rsatib bergan insonlarning, urush va mehnat fahriylarining, o'z umrining katta qismini xalq uchun mehnat qilishga sarflagan, o'zini yurt farovonligi va tinchligiga bag'ishlagan fidoiy insonlar xotirasi abadiydir.

Inson bor ekan, xotira – muqaddas. Hech kim, hech narsa esdan chiqmaydi. Xalq bugungi tinch-xotirjam zamonni asrab-avaylash, qadriga etish uchun ham urushni, uning qahramonlarini, g'alabaga munosib hissa qo'shgan hech bir kishini unutmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlanganidek: "Xotira – kechagi o'tmishni, ajdodlar o'gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi. Qadr – insonni yuksaklikka ko'taradi, uning faoliyatiga, orzu-intilishlariga, maqsad-maslaklariga olijanoblik bag'ishlaydi".

Ushbu kunda yurtimizda Ikkinchi jahon urushining har bir qatnashchi-

si, front orti mehnat faxriylari hamda mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasi oldida hurmat bajo keltirish, yurtimizda mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, bag'rikenglik va xayr-saxovat muhitini yanada mustahkamlash, yosh avlodni milliy an'analarimizga sadoqat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida kamol toptirish hamda bu muqaddas ayyomni yuksak saviyada nishonlashga katta e'tibor qaratib kelinmoqda.

Ayniqsa bugungi kunda dunyo hamjamiyatida kuzatilayotgan urushlar, vayron bo'lgan shaharlar, halok bo'lgan tinch aholi, yetim-yesir qolgan bolalar va ayollar urushning mudhish oqibatlari va Tinchlikning ulug' ne'mat ekanligini har lahzada anglatmoqda. Bugungi yosh avlod ham Tinchlikning bebaho ne'mat ekanligini chuqur ang'lomog'i lozim. Xotira maydonidagi Motamsaro ona – Vatan ramzi. "Sen doimo qalbimdasan, jigarim!" – degan so'zlarini ona go'yo Vatan bo'lib, xalq bo'lib aytayotgandek...

Xotira va Qadrlash kunini munosib nishonlashdan ko'zlagan bosh maqsadimiz – Vatan himoyachilarini xotirlash, oramizdagi fidoiy insonlarning, tinchlikning qadriga yetish, urushni qoralash, tinch-osoyishta yashayotganimiz, turmush farovonligini ta'minlash uchun ter to'kib, unumli mehnat qilayotganimizning shukronasini qilishdan iborat.

Bu har qanday kishini ma'nan rag'batlantiradi, uni yashashga, yaratishga, tinchlikni asrashga, elu yurtga sadoqat va qat'iyat bilan xizmat qilishga undaydi.

Zero xotira hamisha muqaddas, qadr azizdir. Tinchlik - buyuk ne'mat va taraqqiyot garovidir.

## YOSH TADQIQOTCHI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR



2023-yil 12-may kuni Toshkent pediatriya tibbiyot institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yiliga bag’ishlangan “Yosh tadqiqotchi: muammolar va istiqbollar” mavzusida “Talabalar ilmiy jamiyati”ning 51-Respublika

ilmiy-amaliy konferentsiya bo‘lib o‘tdi. Anjumanda Respublikamizdagi turli ichtirokchilar “Eng yaxshi oliy va o‘rta tibbiyot oliyogohlarining yosh olimlari, magistrleri, klinik ordinatorlari, talabalari, akademik litsey o‘quvchilari o‘zlarining ilmiy - izlanish natijalarini ma’ruza, onlayin poster ma’ruza va tezislarda taqdim etib ishtirok etishdi.

Anjuman klinik fanlar, tibbiy-profilaktik fanlar, ij-

timoiy-gumanitar fanlar va biologik va fundamental fanlar kabi yo‘nalishlarda o‘tkazildi. Anjumanda faol qatnashib, e’tirof etilgan ichtirokchilar “Eng yaxshi ma’ruza uchun”, “Eng yaxshi onlayin poster ma’ruza”, “Eng yaxshi tezis” nominatsiyalari bo‘yicha g‘oliblik diplomlari bilan taqdirlandi. Anjuman materiallari to‘plam holida nashr etildi.

**Ziyoda KARIMOVA**  
*Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i*

## G‘ALABANGIZ BARDAVOM BO‘LSIN

Joriy yilning aprel oyi so‘ngida, Ozarbayjon davlat tibbiyot universitetida o‘tkazilgan “Tibbiyot talabalari va yosh olimlari” xalqaro kongressida institutimizning Iqtidorli bakalavr va magistr bosqishi tala-

balari ishtirok etishdi. Ushbu tanlovga talabalarimiz, tibbiyot fanlari doktori, akusherlik va ginekologiya kafedrasidotsenti Qurbonov B.B. rahbarligida tayorgarlik ko‘rishdi. Oliy o‘quv yurtimizning bilimdon

lik va ginekologiya kafedrasimagistri, Raxmonova Shahzoda Akusherlik va ginekologiyakafedrasid 2 yillik ta’lim magistri, Shodijanova Zunnuna Tibbiy-pedagogika va davolash fakulteti Tibbiy-pedagogika yo‘nalishi 4-bosqich, talabalarni va ularning ilmiy rahbari B.B. Qurbonovni yana bir g‘alaba bilan tabriklaymiz. Talabalarga kelgusi ilmiy faoliyatlarida ham omad yor bo‘lsin.



yoshlariga grand-pri sohibi bo‘lish nasib etdi. G‘oliblikni qo‘lga kiritgan, Evkocheva Sarvinoz Tibbiy-pedagogika va davolash fakulteti, tibbiy-pedagogik yo‘nalishi 4-kurs talabasi, Qodirova Maftuna Akusher-

**Marhabo**  
**ABDUXAMIDOVA**  
*O‘z muxbirimiz*

## MA'NAVIYAT SARCHASHMASI

Kishilik jamiyatining taraqqiyoti davomida turli-tuman moddiy, madaniy va an'anaviy yodgorliklar yaratilgan. Ana shu yodgorliklardan biri kitobdir. Faqat kutubxonalar tufayligina qo'lyozmalar, bosma kitoblar, tarixiy shaxslar haqidagi manbaalar bizgacha etib kelgan. Ilmli kishilar kitobni barcha boyliklardan-da yuqori o'rinda ko'rganlar, ularni qadrlaganlar. Kutubxona so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "kitoblar uyi", "kitoblar saqlanadigan joy" degan ma'nolarni anglatadi.

ToshPTI ARM kutubxonasi 1972-yil sentyabr oyida tashkil etilgan. Kutubxonani tashkil etishda hozirgi MDHdagi barcha tibbiyot institutlari o'z fondlari bilan o'rtoqlashishgan. Shu paytda kutubxona fondi 5572 nomda 7800 nusxadagi adabiyotlardan tashkil topgan edi. 1972-1996-yillari O. Bogatina, 1996-2019-yillari esa K.N. Muhamedova institut kutubxonasi mudiri bo'lib faoliyat yuritishgan. Hozirda M.M. Nazarmuxamedova ARM direktori lavozimida ishlab kelmoqda.

Kutubxona O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida 2006-yil 20-iyundagi PQ-381-sonli qarori asosida hamda ToshPTIning 2007-yil yanvar oyidagi ichki buyrug'i bilan "Axborot resurs markazi" deb nomlangan boshlandi.

2016-yil Davlat dasturiga kiritilgan yangi "Axborot resurs markazi"ning qurilish ishlari yakunlandi va joriy yilning dekabr oyidan boshlab yangi binoda ish olib borilmoqda. Yangi ARMda kitobxonlar foydalanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.



ARMdagi mavjud elektron va o'quv zali 300 o'rindan iborat bo'lib talabalar uchun 28 ta monoblok, 49 ta kompyuterlar, jami 77 ta kompyuterlar o'rnatilgan va 10 Mb/s internet tarmog'i bilan ta'minlangan. O'qituvchi va talabalar uchun Free Wi-Fi zonalarini tashkil etilgan.

Bugungi kunda axborot resurs markazida ilmiy-uslubiy va axborot-ma'lumot (davriy nashrlar), axborot-kutubxona resurslarini butlash, kataloglashtirish va tizimlashtirish, axborot-kutubxona resurslari bilan xizmat ko'rsatish (abonementlarga xizmat ko'rsatish, o'quv zallari va kitob saqlashni inobatga olgan holda), elektron axborot resurslari, xorijiy axborot-kutubxona resurslari bilan ishlash kabi bo'limlar faoliyat yuritadi.

Axborot resurs markazining faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida ARMga tashrif buyurgan kitobxonlarni elektron ro'yxatdan o'tkazish ishlari yo'lga qo'yilgan. "Elektron kutubxona" <http://e-lib.tpmi> veb sayti lokal tarmoq orqali ishga tushirildi va hozirgi kunda "Elektron kutubxona"ga ARM fondidagi adabiyotlarning to'liq elektron nusxasi kiritilib borilmoqda. Shu bilan birga 903 ta darslik, o'quv qo'llanmalar, 411 ta badiiy adabiyotlar, 251 ta ilmiy adabiyotlar, 8 ta Prezident asarlari va 371 audio-video darsliklar yuklangan.

ToshPTI axborot-resurs markazida QR-kodli kitob stendlari ham mavjud. QR-kodli kitob stendlari 5 ta bo'lib, har bir stendda 120 tadan o'quv va badiiy adabiyotlar joylashgan. Kerakli kitoblarni @edubooksbot telegram bot orqali ham yuklab olish imkoniyati mavjud.

Professor – o'qituvchilar va talabalarining talab-istaklarini inobatga olgan holda telegram ijtimoiy tarmoqida "ToshPTI Axborot resurs markazi" kanali ishga tushirilgan. Ayni paytda kanalga adabiyotlarning to'liq elektron nusxasi va audio-videokitoblar joylashtirilmoqda. Kanalning bir qancha afzallik tomonlari mavjud. Misol uchun foydalanuvchilar masofadan



turib, o'zlariga kerakli bo'lgan adabiyotlarni to'liq elektron nusxalaridan foydalanishlari, zarur vaqtda kanal administratorlariga o'zlari uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olishda murojaat qilishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354-sonli Qarorida berilgan vazifalarni bajarish maqsadida Axborot resurs markazida kitob fondini zamonaviy o'quv adabiyotlar bilan boyitish ishlari olib borilmoqda.

Talabalarga qulaylik yaratish maqsadida bosqichma-bosqich barcha adabiyotlarga to'liq elektron QR kodli shtrix joylashtiriladi. edubook.autolib.uz saytiga joylashtirilgan kitoblarni QR kod shtrixi olinib kitoblarga yopishtirib chiqiladi.

Institutimiz va Rossiyaning, Sankt-Peterburg Pediatriya Universiteti hamkorligida "Xalqaro fakultet" tashkil etilgan bo'lib, Rossiyaning "GEOTAR-MEDIA" nashriyotidan ham 289 nomda 3887 nusxadagi adabiyotlar sotib olingan. Shundan 150 nomdagi adabiyotlarning elektron nusxasi shakllantirilgan.

Bugungi kunda ARMning umumiy fondi 62887 nomda 366327 nusxani tashkil etadi.

Har oy o'tkaziladigan Ilmiy kengashda "Yangi adabiyotlar" ko'rgazmasi tashkil etilib, professor-o'qituvchilarga kitoblar ro'yxati taqdim etiladi.

**M.M. NAZARMUHAMEDOVA,**  
ARM direktori

**D.N. RASULEVA**  
ARM yetakchi mutaxassisi

## INSON AZIZ – XOTIRA BARHAYOT



8-may kuni institutimizda “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan tadbir bo‘lib o‘tdi. Unda institutimiz, shuningdek Yunusobod tumani “Bobodehqon”, “Uvaysiy” va “Shoshtepa” mahallalaridan afg‘on urushlari faxriylari qatnashishdi.

Tadbirni o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor K.N.Xaitov ochib berdilar. Ular Birinchi Prezidentimizning 1999-yil 2-martdagi Farmoni bilan 9-may “Xotira va qadrlash kuni” deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan bugun institutimizda bayram tadbiri tashkil etilib, Ulug‘ vatan urushida qatnashgan front ortida xizmat qilgan faxrilarimiz va

Afg‘on urushi qatnashchilari taklif etilganligini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

So‘zga chiqqan Yunusobod tumani “Bobodehqon” mahallasidan Afg‘on urushi qatnashchisi Nosirov Shamsiddin Djalilovich Afg‘on urushida halok bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini ko‘zlarida yosh bilan yod etib talabalarga urushdagi mashaqqatlarining og‘ir kunlarini sabr-bardosh bilan yengib jang qilgan mashaqqatli daqiqalarda ham o‘zligini yo‘qotmagan xizmatdoshlarini esladi, halok bo‘lgan do‘stlarini xotirasini yod etganini aytdi.

Tadbirda “Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug‘. O‘tganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, e‘zozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilat ekan”ligini ta’kidlar ekanmiz o‘tganlarning nomlarini yod etish, xotirasini

hurmat bilan eslashimiz va talaba yoshlarimizga ham bu haqda tushunchar berib borishimiz lozimligiga alohida to‘xtaldik.

Vatanimizni fashist bosqinchilaridan himoya qilib o‘z jonini fido qilgan mard o‘g‘lonlarimiz Vatanimizning bugungi kunga yetib kelishiga o‘sha dovyurak ota-bobolarimiz sababchi bo‘lganligi haqida har doim ongiga singdirib borish har bir insonning burchidir.

Tadbir davomida mehmonlar institutda tashkil etilgan muzey bilan tanishdilar. Iqtidorli talabalar tomonidan she‘r va qo‘shiqlar ijro etildi. Shuningdek, faxriylarga Xodimlar kasaba uyushmasi tomonidan ajratilgan qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

**M.A. AXMEDOVA**

*Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor*

## O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

*Professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e‘lon qiladi:*

**KAFEDRA MUDIRI:** Farmakologiya, fiziologiya; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari, tibbiy genetika.

**PROFESSOR:** Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari, tibbiy genetika.


**DOTSENT:** Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni tashkil qilish va boshqarish; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya; Gospital pediatriya № 2, xalq tabobati; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari, tibbiy genetika; Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi.

**KATTA O‘QITUVCHI:** O‘zbek tili va adabiyoti.

**ASSISTENTLAR:** Anatomiya, patologik anatomiyasi; Gospital pediatriya №1, xalq tabobati; Travmatologiya va ortopediya, neyroxirurgiya; Travmatologiya va ortopediya, neyroxirurgiya; Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya, umumiy genetika; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya; Gospital bolalar xirurgiyasi kafedras; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari, tibbiy genetika; Oilaviy shifokorlik №1, jismoniy tarbiya, fuqarolar muxofazasi; Neyroxirurgiya.

**Tanlov muddati – e‘lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog‘ishamol ko‘chasi 223, Tosh PTI.**

**Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 18.05.2023.**

 <p><b>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNT JAMOASI NASHRI</b> ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТУТА</p>	<p><b>Tahrir kengashi:</b> D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A. Nosirov, D. Choriyeva, <b>Nashr uchun mas‘ul:</b> M. Abduhamidova</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> B.T. DAMINOV Tahrir hay‘ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva <b>(Bosh muharrir o‘rinbosari),</b> A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, H. Abidov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223</p> <p>“XALQ NASHRIYOTI” XKda chop etildi. <b>Manzil:</b> Toshkent sh. Qorasaroy ko‘chasi, 316 uy. <b>Tel.:</b> (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nusxa, qog‘oz bichimi A3.</p> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
---	---	--	--